

YOSHLAR OVOZI

Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy,
adabiy-badiiy
gazeta

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

#23 (16677)
2025–yil 11-iyun,
chorshanba



/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

Gazeta 1925–yildan chiqa boshlagan

“YOSHLAR OVOZI” SAHNA ORZUSI RO‘YOBGA CHIQDI!



Foto: Marvarida ISROIL

»»4-bet

Poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida to'rt kun davom etgan “Yoshlar ovozi” tanlovining respublika bosqichi yakuniga yetdi. Yurtimizning barcha hududlaridan tashrif buyurgan 161 nafar iqtidorli yosh sahnada o'zining badiiy salohiyati, sahna madaniyati va jonli ijro mahoratini namoyon etdi. Tanlov 10–15, 16–22 va 23–30 yosh toifalarida o'tkazildi.

“Yoshlar ovozi – Bo'zatov FEST” loyihasi Prezidentimiz tashabbusi bilan yoshlar salohiyatini yuzaga chiqarish, ularni madaniyat va san'atga keng jalb etish

maqsadida yo'lga qo'yilgan bo'lib, “Dolzarb 90 kun” va “Yoshlar oyli” tadbirlari doirasida tashkil etildi.

Tanlovning birinchi kuni baxshichilik yo'nalishida o'tib, ishtirokchilarning yurakdan chiqqan dostonlari, xalq ruhi bilan sug'orilgan so'zlari va ohanglari bilan to'moshabinlarda unutilmas taassurot qoldirdi.

Ushbu yo'nalishda eng kichik yosh toifasida Toshkent shahri sharafiga himoya qilgan Muhammadali Soatov, 16–22 yosh toifasida navoiylik Baxitjan Sabirov, 23–30 yosh toifasida surxondaryolik Farrux Nuraliyev 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!

»2-bet



Sirdaryo viloyatining Guliston shahrida “Yoshlar oyli” doirasida “Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida keng ko'lamli madaniy-ma'rifiy tadbir bo'lib o'tdi.

Bayramona ruhda o'tgan tadbirda shahar aholisi, faol yoshlar, mahalla yetakchilari hamda poytaxtdan tashrif buyurgan mehmonlar ishtirok etdi.

Sirdaryo viloyati hokimligi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Erkinjon Turdimov hamda agentlik direktori Alisher Sa'dullayev ishtirok etib, yig'ilganlarni kelayotgan 30-iyun – Yoshlar kuni bilan samimiy muborakbod etdi. Shuningdek, yoshlar siyosatini amalga oshirishda faollik ko'rsatayotgan, tashabbuskor va mas'uliyatli mehnati bilan tengdoshlariga namuna bo'layotgan bir guruh yoshlar Sirdaryo viloyati hokimligi va Yoshlar ishlari agentligining tashakkurnomalari bilan taqdirlandi.

G'ALLAOROLDA “DOLZARB 90 KUN!”



»2-bet

Prezident tashabbusi bilan ta'til davrida maktab o'quvchilari va uyushmagan yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish maqsadida boshlangan “Dolzarb 90 kunlik” doirasida mamlakatimizning barcha hududlarida qator tadbirlar o'tkazilmoqda.

Xususan, G'allaorol tumani Sarbozor mahallasida ham mazkur tashabbus asosida “Bolalarga bering dunyoni” shiori ostida bayram tadbiri tashkil etildi. Mahalla yoshlar yetakchisi tashabbusi bilan o'tkazilgan bayram yoshlar va butun jamoatchilikni birlashtirishga xizmat qildi. Tadbir davomida bolalar va yoshlar uchun turli o'yinlar, madaniy ko'rgazmalar, kuy-qo'shiqlar, raqslar namoyish etildi.

O'ZBEKISTONDA TURIZM

IQTISODIYOTI

»3-bet

S o'nggi o'n yilliklarda turizm dunyoda eng tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo'lib kelyapti. 1950-yilda xalqaro sayyohlarning soni atigi 25 million bo'lgan bo'lsa, 2000-yilga kelib bu ko'rsatkich 674 millionga yetdi. COVID-19 pandemiyasidan oldin — 2019-yilda esa butun dunyo bo'ylab 1,5 milliardga yaqin xalqaro sayyohlar harakat qilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2025-yil may oyidagi Jahon sayyohlik barometriga ko'ra, 2025-yilning birinchi uch oyida 300 milliondan ortiq sayyoh xalqaro miqyosda sayohat qilgan, bu 2024-yilning shu oylariga nisbatan qariyb 14 millionga (5 foiz o'sish), 2019-yilga nisbatan 3 foizga ko'p degani.



“UZCHESS CUP – 2025”

»2-bet

TOSHKENT
YANA SHAXMAT
MARKAZIGA
AYLANMOQDA



Joriy yil 18–28-iyun kunlari Toshkent shahri yana xalqaro shaxmat yulduzlarini bir joyga jamlaydi. Ikkinchi bor o'tkazilayotgan “UzChess Cup” – O'zbekistonning shaxmatdagi global ambitsiyalarini namoyish etuvchi nufuzli turnirdir. Turnir 2026-yilda bo'lib o'tadigan jahon shaxmat olimpiadasiga tayyorgarlik jarayonining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Bu musobaqa orqali nafaqat dunyoning eng kuchli shaxmatchilari o'z mahoratini sinovdan o'tkazadi, balki o'zbekistonlik yosh iqtidorlar uchun ham katta imkoniyatlar eshigi ochiladi. Har yili kuchayib borayotgan “UzChess Cup” brendi bugun nafaqat Markaziy Osiyo, balki xalqaro shaxmat jamoatchiligida o'z o'rnini topmoqda.

Bu yilgi turnir o'tgan yilgidan ancha kuchli tarkib bilan ajralib turadi. Reytinglar, ishtirokchilar darajasi va tajriba nuqtayi nazaridan barcha guruhlarda raqobat kuchaygan. Ayniqsa, 2025-yil

da ilk bor tashkil etilayotgan “Open” guruhi musobaqani yanada omma-viy va ochiq tusga keltirdi. Turnirning umumiy mukofot jamg'armasi 121 500 AQSh dollarini tashkil qiladi.

Turnir to'rtta guruhda o'tkaziladi:

- “Masters” (reytingi 2700 dan baland shaxmatchilar);
- “Challengers” (reytingi 2600 dan baland grossmeysterlar va mahalliy nomzodlar);
- “Futures” (reytingi 2500 dan baland shaxmatchilar);
- “Open” (istalgan FIDE reytingiga ega yoki havaskor shaxmatchilar).

IMPOSTER SINDROMI

»4-bet

“ICHIMDAGI FIRIBGAR”



Men bu muvaffaqiyatga loyiq emasman”, degan his o'tganmi hech? Yoki imtihonda yaxshi baho olsangiz ham, uni faqat omad deb o'ylaganmisiz? Bu holat imposter sindromi deb ataladi – o'z yutuqlarini qadrlay olmaslik va doimiy ravishda o'ziga shubha bilan qarash. Bu tushunchaning ortida ilmiy kuzatuvlar, ijtimoiy kontekst va ayollarning jamiyatdagi o'rniga oid chuqur tahlillar yotadi.

1970-yillar Amerika feminizm to'lqini, mehnat bozorida ayollarining ulushi o'sishi va gender rollariga qarshi kurash kuchaygan davr edi. Ayni shu jarayonda o'ziga xos bir holat psixologlar Paulin Rouz Klans va Syuzanna Imes e'tiborini tortdi: ularning bemorlari orasida yuqori malakali, ko'p yutuqlarga erishgan ayollar bo'lsa-da, ular o'zlarini “aslida bularning hech biriga loyiq emas-

man”, “meni haddan ortiq baholash-yapti”, “tez orada meni fosh qilishadi” kabi fikrlar bilan qiynalayotgandi.

Klans va Imes bu kuzatuvni chuqurroq o'rganishga qaror qiladi va 1978-yilda o'zlarining mashhur maqolasi — “The Impostor Phenomenon in High Achieving Women: Dynamics and Therapeutic Intervention”ni chop etishadi. Bu maqola ilmiy hamjamiyatda katta rezonans uyg'otadi. Unda mualliflar bu sindrom asosan ayollarda kuzatilishini ta'kidlab, buni o'z-o'zini baholashdagi nomutanosiblik, ijtimoiy muammolar va bolalikdagi tarbiya bilan bog'liq deb izohlaydilar. Atama o'zida ikki kuchli ma'naviy yukni birlashtiradi: birinchisi – o'ziga ishonchsizlik, ikkinchisi – fosh bo'lish qo'rquvi. Garchi sindromning dastlabki shakli ayollarga xos deb ko'rilgan bo'lsa-da, 1980-yilda bu holat erkaklar, talabalar, hatto taniqli olimlar va san'atkorlar orasida ham uchrashi isbotlandi.

ISHONCH – ASOSIY INVESTITSIYA

»2-bet

XO'JAQISHLOQDA
IJTIMOIY HIMOYAGA
MUHTOJ YOSHLAR
BILAN ISHLASH
TAJIRIBASI



Samarqand viloyati Toyloq tumani Xo'jaqishloq mahallasi yoshlar yetakchisi Shohmirzo Doliyev 2023–2025-yillarda “Yoshlar daftari” loyihasi doirasida ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni aniqlash, ularning muammolarini tizimli hal qilish va jamiyatga qo'shilishiga ko'maklashish bo'yicha samarali faoliyat yuritmoqda.

MAQSAD YO IMKON...

Shohmirzo Doliyev mahalla yoshlarining ijtimoiy holatini doimiy monitoring qiladi, ularning muammolarini aniqlab, “Yoshlar daftari”ga kiritish bo'yicha tavsiya beradi va tegishli organlar bilan hamkorlikda yechim topadi.

2023-yilda 18 nafar yoshning jami 29 million so'mlik, 2024-yilda 8 nafar yoshning 25 million so'mlik, 2025-yilning birinchi choragida 4 nafar yoshning 13,9 million so'mlik muammolarini hal qilgan.

HAMKORLIK MEMORANDUMI

Navoiy davlat universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkilotlari Kengashi yetakchilari o'rtasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Memorandumning asosiy maqsadi oliy ta'lim muassasalarini o'rtasida do'stona aloqalarni o'rnatish, hamkorlikda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazish, talaba-yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, shu maqsadda turli sport musobaqalarini tashkil etishdan iborat.

Ilk uchrashuv Navoiy viloyatida bo'lib o'tdi. Unda Samarqand iqtisodiyot va servis instituti talabalari Navoiy viloyatidagi oliy ta'lim muassasalarida talabalar uchun yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

YANGI O'ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Tadbirning madaniy qismida taniqli san'atkorlar, professional raqs jamoalari hamda iqtidorli yoshlar ishtirok etib, Vatan, tinchlik, yoshlik va milliy qadriyatlar mavzusidagi jonli ijrolari orqali tomoshabinlarga samimiy va yuksak ruhiy kayfiyat ulashdi.

– Bunday madaniy tadbirlar biz, yoshlarga kuch-g'ayrat va yangi maqsadlar sari intilish uchun ruhiy quvvat bo'ladi, – deydi Guliston davlat pedagogika institutining 3-bosqich talabasi Shohjahon Hamdamov. Tashkilotchilarning ta'kidlashicha, “Yoshlar oyligi” doirasida shunga o'xshash tadbirlar viloyatning barcha tuman va shaharlarida izchil ravishda davom ettiriladi. Bunday tashabbuslardan ko'zlangan asosiy maqsad – yosh avlodni ma'naviy jihatdan barkamol, ijtimoiy faol va Vatan ravnaqi uchun mas'uliyatli shaxslar sifatida tarbiyalash, ularning iqtidor va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashdir.

G'ulom PRIMOV,
O'zA muxbiri

Besh tashabbus olimpiadasi

FUTBOLSEVAR AVLOD



“Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida Davlat xavfsizlik xizmati kubo-g'i uchun 16–30 yosh toifasidagi o'g'il-qizlar o'rtasida mini futbol hamda futbol bo'yicha musobaqaning Urgut tuman bosqichi o'tkazildi. Bahslarda jami 120 ta mahalladan 4 800 nafardan ortiq yosh ishtirok etdi.

Bellashuvlar Istiqlol mahallasidagi sport maydonida bo'lib o'tdi. Yigitlar o'rtasidagi mini futbol bahslarida har bir sektordan eng yaxshi jamoalar – jami 40 nafar yosh ishtirok etdi.

Final natijalariga ko'ra, O'rtaguzar mahallasi tuman bosqichi g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2-o'rinni Qorabuloq, 3-o'rinni esa Qayroqli mahallasiga nasib etdi.

Qizlar o'rtasidagi mini futbol bahslarida ham 4 ta sektordan 40 nafar qiz ishtirok etdi. Yakunda 1-o'rinni Algar mahallasi, 2-o'rinni Sufi mahallasi, 3-o'rinni Jartepa mahallasi band etdi.

Futbol bo'yicha o'tkazilgan saralash bahslarida 7 680 nafardan ortiq yoshlar ishtirok etdi.

Musobaqaning yakuniy natijalari quyidagicha bo'ldi:

- 1-o'rin – Etak-Beshkapa mahallasi jamoasi;
- 2-o'rin – Algar mahallasi;
- 3-o'rin – Sufi mahallasi.

Musobaqada 1-o'rinni qo'lga kiritgan jamoalar navbatdagi – hududiy bosqichda ishtirok etadi.

Diyorbek AKBAROV,
Urgut tumanidagi O'zbekiston mahallasi yoshlar yetakchisi

ISHONCH ASOSIY INVESTITSIYA

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.

XO'JAQISHLOQDA IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ YOSHLAR BILAN ISHLASH TAJRIBASI



“MEN YOLG'IZ EMASMAN”

Yetakchining “Yoshlar daftari” loyihasidagi ishtiroki aniq tizimli natijalarga olib keldi. Har bir yoshning muammosi individual o'rganilib, moliyaviy yordam, ta'limda qo'llab-quvvatlash yoki kasb-hunar o'rgatish kabi yo'nalishlarda yordam ko'rsatildi.

Misol uchun, 2023-yilda yordam olgan yoshlarning ko'pchiligi oilaviy muammolar, ishsizlik yoki sog'lik muammolari bilan yuzlashgan bo'lsa, 2024-yilda ko'proq yoshlar o'qish yoki ish bilan ta'minlash borasida qo'llab-quvvatlangan.

2025-yilning birinchi choragida esa yordam ko'rsatish yanada individual va aniqlashtirilgan tarzda olib borildi. Bu holat yoshlarning jamiyatga qo'shilishida yanada yuqori natijalarga erishishga imkon berdi.

Nasiba Obloqulova 24 yoshda. Otasi erta vafot etgan. Hozir Samarqand davlat universitetida tahsil olmoqda. Yoshlar yetakchisi yordami bilan kontrakt to'lovining 50 foizi qoplab berildi.

– Yoshlikdan orzum o'qituvchi bo'lish, bolalarga bilim berish edi, – deydi Nasiba Obloqulova. – Afsuski, oilaviy sharoitimiz sababli oliy ta'limdagi kontrakt to'lovini to'lash men uchun katta muammo bo'ldi. Shunday vaziyatda mahallamizdagi yoshlar yetakchisiga murojaat qildim. U meni diqqat bilan tingladi, holatimni o'rgandi va qisqa fursatda yordam berish choralari ko'rdi. Natijada kontrakt to'lovimning 50 foizi “Yoshlar daftari” jamg'armasi yordamida to'lab berildi.

Bu yordam menga faqat moddiy emas, ma'naviy ko'mak ham bo'ldi. Endi ishonch bilan ayta olaman: yolg'iz emasman, mening o'rtimda davlat, mahalla va yoshlar uchun sidqidildan ishlayotgan insonlar bor. Ularning yordami tufayli ta'limni davom ettiryapman.

XO'JAQISHLOQ MAHALLASI BALANSI:

Aholi soni:

3550 nafar;

Yoshlar soni:

842 nafar;

Ayol-qizlar:

410 nafar.

Shohmirzo DOLIYEV,

Xo'jaqishloq mahallasi yoshlar yetakchisi

– Har bir yigit-qizning orzusi, o'z yo'li bor, – deydi Xo'jaqishloq mahallasi yoshlar yetakchisi Shohmirzo Doliyev. – Ba'zilarida imkon bor, ammo yo'nalish yo'q. Boshqalari esa iste'dodli, lekin imkonsiz sharoitda yashaydi. Mana shu o'rtadagi farqni kamaytirish mening vazifam deb bilaman. “Yoshlar daftari” orqali biz aniq reja bilan ishlaymiz. Har bir murojaat ortida butun bir oilaning, ba'zan esa bir yoshning kelajak-taqdiri turadi. Men har bir ishimga shu mas'uliyat bilan yondashaman. Ko'rsatilgan yordamlar faqat raqam emas. Bu orzular tiklangan, yo'llar ochilgan, hayotga qaytgan yoshlar degani. Ijtimoiy himoya faqat moddiy yordam emas, yoshning qalbiga yetib borish, uni tinglash, unga ishonish. Men uchun eng katta mukofot yordam berilgan yigit-qizlarning keyin o'zlaridagi boshqa yoshlarga yordam qo'lini cho'zayotganini ko'rishdir. Mahallada yoshlar bir-biriga ijobiy ta'sir o'tkazadigan muhit yaratilmoqda. O'ylaymanki, yoshlar yetakchisi faqat tadbir o'tkazuvchi emas. U ishonchli do'st, maslahatgoy va zarur bo'lsa, ko'makchidir. Biz nafaqat bugungi yoshlarga, balki kelajakdagi kuchli jamiyat poydevoriga xizmat qilamiz.

TASHABBUS NATIJASI

Shohmirzo Doliyev yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, madaniy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ham katta e'tibor qaratmoqda. Mahallada muntazam ravishda sport musobaqalari, madaniyat kechalari va mahorat darslari tashkil etmoqda. Tadbirlar yoshlarning jamiyatga integratsiyasini kuchaytirib, ularni ijtimoiy hayotga jalb etish, ijobiy tarafga o'zgarishiga xizmat qilmoqda.

Jumladan, 2024-yilda “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida o'tkazilgan sport tadbirlarida xo'jaqishloqlik Izzatillo Ibodulloyev shaxska, Ulug'bek Abdusamadov stol tennis bo'yicha tuman bosqichida sovrindor bo'ldi. Paralimpiya bahslarining hududiy bosqichida esa Dilafroz A'zamova parashashka sport turidan 1-o'rinni egallab, respublika bosqichida qatnashdi.

2025-yilda esa “Tashabbusli budjet” loyihasi doirasida Shohmirzo Doliyev mahalla hududidagi ko'cha chiroqlarini o'rnatish va ta'mirlash (transformator va simyog'ochlar o'rnatish) bo'yicha loyihani yutib oldi. Bu tashabbus mahalla infratuzilmasining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.



“Ibrat farzandlari” loyihasida 54 nafar yosh o'yxatdan o'tgan bo'lib, ulardan biri sertifikat oldi. “Mutolaa” loyihasida esa 25 nafar yosh jami 211 dan ortiq kitobni o'qimoqda. “Ustoz AI” loyihasida 8 nafar foydalanuvchi faol.

SO'NGGI 3 YILDA JINOYAT SODIR ETILMADI

Yetakchining faoliyati mahalla ijtimoiy hayotida sezilarli o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning kamayishi, ta'lim va ish bilan ta'minlanishi, madaniy va sport tadbirlarida ishtiroki barqarorlik va farovonlik darajasini oshirdi. Yoshlar o'rtasida ijtimoiy muammolar kamaydi, so'nggi 3 yilda jinoyat sodir etilmadi. Yoshlar orasida sog'lom raqobat va ijodiy faollik oshdi. Bu esa mahalla yetakchisining tizimli yondashuvi samarasidir.

Qahramonimizning tashabbusi bilan mahallada homiylik asosida zamonaviy kutubxona tashkil etildi. Kutubxonada badiiy, ilmiy-ommabop, tarixiy, psixologik hamda yoshlar uchun mo'ljallangan adabiyotlar jamlanib, foydalanishga topshirildi. Yetakchi kitobsevar yoshlar bilan doimiy aloqada bo'lib, o'qilgan kitoblar yuzasidan tahliliy suhbatlar, kitobxonlik musobaqalari va “Kitob haftaligi” kabi madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etmoqda.

Shohmirzo bilan ishlagan yoshlarning fikricha, uning faoliyati ularni o'z-o'zini rivojlantirishga undaydi, ijtimoiy himoyaga muhtojlikdan chiqish yo'llarini ko'rsatadi. Ko'pchilik yoshlar uning ko'magi tufayli o'z hayotida ijobiy o'zgarishlarga erishganini ta'kidladi.



G'ALLAOROLDA DOLZARB

90 KUN

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Muhammadshukur MUHAMMADJONOV,
“Yoshlar ovozi” muxbiri

“Yashil” toifa: 462 nafar	“Sariq” toifa: 365 nafar	“Qizil” toifa: 20 nafar
------------------------------------	-----------------------------------	----------------------------------

Mahalla drayveri:
tadbirkorlik va xizmat
ko'rsatish

ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR

Shohmirzo Doliyev yaqin va uzoq istiqbolida quyidagi maqsadlarni o'ziga belgilab olgan: “Har bir yosh – bir imkon” tamoyilini kengroq tatbiq etish. U har bir yoshni individual yondashuv asosida qo'llab-quvvatlashni davom ettirishni rejalashtirmoqda. Buning uchun ijtimoiy xarita yaratish (qiziqish, ijtimoiy holat, ehtiyojlar tahlili) va har bir yoshga kamida 1 ta individual yo'nalish (ish, o'qish, ko'nikma, ijod) orqali imkon yaratishni maqsad qilgan.

YOSHLAR O'RTASIDA IJTIMOY MUAMMOLAR KAMAYDI, SO'NGGI 3 YILDA JINOYAT SODIR ETILMADI.

“Yoshlar daftari” mexanizmini raqamlashtirish. Telegram orqali mahalladagi yoshlarning murojaatlarini onlayn ro'yxatga olish, ijrosini monitoring qilish tizimini joriy etishni mo'ljallamoqda.

Yoshlar kutubxonasi faoliyatini kengaytirish. Mahalladagi kutubxonani kengaytirib, elektron kitoblar, audio mutolaa yo'lga qo'yish ko'zda tutilgan. O'qilgan kitoblarni asosida munozara klublari tashkil etiladi.

Hunarmandchilik va IT bo'yicha kurslar ochish. Yetakchi yoshlarning bandlik ko'rsatkichlarini oshirish maqsadida mahallada homiylik ishtirokida hunar o'rgatuvchi markaz ochishni rejalashtirgan. IT savodxonligini oshirish maqsadida kompyuter darslari va raqamli ko'nikmalar bo'yicha mahorat darslari yo'lga qo'yiladi.

Sog'lom turmush tarzini ommalashtirish. Mahalla hududida ochiq sport maydonchalari ko'paytiriladi, har hafta mahalla miqyosida sport kunlari, turnirlar tashkil etiladi. Shuningdek, psixologik sog'lomlashtirish yo'nalishida “Yoshlar bilan ochiq suhbat” klubini yo'lga qo'yish belgilangan.

Faol yosh liderlarni tayyorlash. Yetakchi mahalladagi ijtimoiy faol, bilimli, tashabbuskor yoshlardan iborat “Yetakchi yordamchilari” guruhini shakllantirmoqchi. Ular orqali mahalla hayotida yoshlar ishtirokini oshirishni maqsad qilmoqda.



Tadbirga ishtirok etgan mahalla faollari va yoshlari bu kabi tashabbuslarni yuqori baholab, quyidagicha fikr bildirishdi:

“Bunday tadbirlar yoshlarni sog'lom hayot tarzi sari yetaklaydi, ularni yomon odatlardan saqlaydi va do'stlik, hamjihatlik ruhini mustahkamlaydi. Madaniy-ma'rifiy tadbirlar orqali biz milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylaymiz va uni yosh avlodga yetkazamiz”.

Sarbozor mahallasi yoshlari orasida faolligi bilan ajralib turadigan Shaxboz Odilov esa tadbir borasida quyidagicha fikr bildirdi:

– Tadbirlarning asosiy maqsadi yoshlarning jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk, faol, sog'lom bo'lib voyaga yetishiga ko'maklashish, ularning qiziqishlarini rivojlantirishdir.

Mahallalarda amalga oshirilayotgan ishlar yoshlar uchun katta motivatsiya manbayi bo'lib xizmat qilmoqda.

Diyorjon OQBO'TAYEV,
Sarbozor mahallasi yoshlar yetakchisi

O'ZBEKISTONDA TURIZM

IQTISODIYOTI

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Sayyohlar soni ortishi bilan turizmning iqtisodiy ahamiyati ham sezilarli darajada oshdi. Jahon Banki ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yilda turizm global yalpi ichki mahsulotning 10 foizini tashkil etgan (10,9 trillion dollar). Soha 357 million kishini ish bilan ta'minlab, butun dunyoda har o'ndan bir ish o'zni to'g'ridan-to'g'ri turizm bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Oxirgi o'n yilliklarda rivojlanayotgan mamlakatlar va Global Janubdagi (shartli mintqa nomi) turistik maskanlarning ahamiyati ham doimiy o'syapti. Agar 1995-yilda xalqaro sayyohlarning faqat 26 foizi rivojlanayotgan mamlakatlarga tashrif buyurgan bo'lsa, 2010-yilda bu ko'rsatkich 38 foizga yetgan.

Rivojlanayotgan davlat sifatida O'zbekiston ham o'z turizm salohiyatini oshirib, shu orqali iqtisodiy o'sishga erishyapti. Turizm qo'mitasi ma'lumot berishicha, 2025-yil aprel oyida O'zbekistonga ilk bor 1 milliondan ziyod sayyoh kelgan. 2024-yil yakunlari bo'yicha turizm sohasidagi daromad 3,5 milliard dollarga yetib, 2023-yilga nisbatan 1,5 barobarga o'sgan va 10,2 million sayyoh tashrif buyurgan.

“ENG YAXSHI RIVOJLANAYOTGAN MANZIL”

O'zbekiston turizm salohiyatini kuchaytirish va global bozorda o'z o'rnini mustahkamlash yo'lida qator aniq qadamlarni tashladi. 2024-yilda turizm infratuzilmasi jadal rivojlanib, mamlakatda 124 ta yangi mehmonxona va 239 ta hostel ish boshladi. Umumiy turar joylar soni 6 100 taga, joylar sig'imi esa 161 mingga yetdi. Azimut, Bentley va Hilton kabi xalqaro mehmonxona brendlari Toshkent, Samarqand hamda Termizda o'z filiallarini ochdi.

Sayyohlar oqimini boshqarish va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish maqsadida 866 ta yangi sayyohlik agentligi tashkil etilib, ularning umumiy soni 3 686 taga yetkazildi.

Ichki turizm ham ancha jonlandi. “O'zbekiston bo'ylab sayohat!” loyihasi orqali millionlab fuqarolar mamlakat bo'ylab safar qildi. Nogironligi bor shaxslar uchun maxsus ijtimoiy turizm dasturi doirasida 18 100 kishi safarga chiqish imkoniga ega bo'ldi. Sayyohlarga xizmat ko'rsatish sohalarida yaratilgan 51 mingta yangi ish o'rnini esa turizmning mahalliy iqtisodiyotga ta'sirini yanada kuchaytirdi.

Shuningdek, O'zbekistonning xalqaro miqyosdagi turizm targ'iboti ham keng qamrovli bo'lyapti. BBC, CNN, National Geographic kabi yirik media platformalar bilan hamkorlikda olib borilgan kampaniyalar mamlakatning global imijini mustahkamladi. Ctrip va Holiday Factory kabi sayohat agentliklari bilan hamkorlik esa qamrov geografiasini kengaytirdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston 22 ta mamlakatda bo'lib o'tgan 19 ta xalqaro sayyohlik yarmarkasida ishtirok etdi, Xitoy, Eron, Buyuk Britaniya va Malayziyada “Yo'l ko'rgazmalari” tashkil qildi. Ayniqsa, 2024-yil dekabr oyida boshlangan “Xitoyda O'zbekiston turizmi yili” tadbirlari, Sian hamda Shanhayda o'tkazilgan rodshoular katta rezonans uyg'otdi.

Mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish maqsadida O'zbekiston “Markaziy Osiyo turistik halqasi” loyihasida yetakchi o'rnini egalladi. Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi (TITF) doirasida 20 mingdan ortiq mehmonlar, jumladan, Gruziya, Qozog'iston va Hindistondan sayyohlar va sanoat vakillari ishtirok etdi.

Bu sa'y-harakatlar xalqaro maydonda ham e'tirof etilib, 2024-yilda BMT Jahon Turizm Tashkiloti O'zbekistonni turizm daromadlari o'sishi bo'yicha eng yaxshi davlatlardan biri sifatida tan oldi. Bundan tashqari, O'zbekiston Wanderlust Reader Travel Awards mukofotining “Eng yaxshi rivojlanayotgan manzil” nominatsiyasiga sazovor bo'ldi.

KUTILMA VA REJALAR

2025-yilda O'zbekistonda turizm sohasida sezilarli o'sish kutilyapti. Mamlakat bo'ylab 36 ta hudud-da turizmni rivojlantirish dasturi ishga tushirilgan. Bu dasturning maqsadi etno, gastronomik, tibbiy, ekstremal, madaniy-tarixiy, qishki va agroturizmni rivojlantirishdan iborat. Masalan,

Yoshlar yetakchilarini qo'llab-quvvatlash markazi bilan hamkorlikda



Dilshod RUZMETOV,

Ellikqal'a tumani Paxtachi mahallasi yoshlar yetakchisi

Mahallamizda 1600 nafardan ziyod yosh istiqomat qiladi. Har bir yoshning hayotdagi o'rnini topishiga, orzu-intilishlarini to'ryobga chiqarishiga ko'maklashish faoliyatimizning bosh mezonidir. Ayni paytda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ishsiz yoki tahsil olayotgan, qo'shimcha ko'makka muhtoj 37 nafar yosh “Yoshlar daftari”ga kiritilgan. Ular bilan manzilli va tizimli ish olib borilmoqda.

Misol uchun, joriy yil boshidan buyon 2 nafar yigit-qizning kontrakt puli to'lab berildi. Bir yoshga tikuv mashinasi topshirildi, yana bir nafar yoshimizga esa biometrik pasport rasmiylashtirishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Yoshlar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning dard-u muammolarini o'rganish maqsadida haftalik uchrashuvlar, sport va madaniy tadbirlar, kasbga yo'naltirish seminarlarini tashkil etib boramiz. Mahallamizda faoliyat yuritayotgan “Yoshlar

klubi” doirasida kompyuter savodxonligi, chet tillari, tikuvchilik kabi kasb-hunar o'rgatuvchi kurslar yo'lga qo'yilgan. Shuningdek, “Besh muhim tashabbus olimpiadasi” orqali 1000 nafardan ortiq yoshlarni qamrab olishga erishildi.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olish ham ustuvor vazifalarimizdan biridir. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda muntazam ravishda profilaktik suhbatlar o'tkazib boriladi. Natijada 2024-yildan hozirgi kungacha mahallamiz yoshlari o'rtasida birorta jinoyatchilik qayd etilmadi.

Mahallamiz yoshlari orasida iqtidorli o'quvchilar, sportchilar va ijodkorlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularining salohiyatini yuzaga chiqarish, rag'batlantirish – bizning burchimiz. Xususan, “Ibrat Academy” mobil ilovasi orqali 52 nafar yosh ingliz tilidan B2 darajali sertifikatga ega bo'ldi. Men o'zim ham ushbu ilova orqali “Super start” kurslarini muvaffaqiyatli yakunlab, sertifikat oldim. Bu bilan yoshlarga shunchaki lider emas, balki o'rnak bo'lishni maqsad qilganman.

Yoshlarga e'tibor bu kelajakka sarmoniyadir. Paxtachi mahallasida bu yo'nalishdagi ishlar izchil davom etmoqda. Har bir yosh hayotda o'z o'rnini topishi, jamiyatda munosib o'rin egallashi uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etamiz.

POYTEXT VELOMARAFONI



Oliy Majlis Senati, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, Sport vazirligi, Milliy olimpiya qo'mitasi va Yoshlar ishlari agentligi hamkorligida tashkil etilgan “Yoshlar kubogi” velomarafonida talabalar, havaskor yoshlar, velosport ixlosmandlari 15 kilometr masofada o'z imkoniyatini sinovdan o'tkazdilar.

Qizlar o'rtasidagi bahsda Feruza Norqulova g'oliblik shohsupasini band etdi. Keyingi o'rinlar Nodira Abdullayeva va Nasiba Mambekovaga nasib etdi.

O'smir yigitlar bahsida Ruslan Jaloliddinov belgilangan masofani birinchi bo'lib bosib o'tib, g'oliblikni qo'lga kiritdi. Umid Baxtiyorov va Daniel Mirzaboyev ikkinchi va uchinchi o'rinlarga sazovor bo'ldi.

G'olib va sovrindorlar qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandi!

tog'li hududlarda yangi chang'i kurortlari ochish rejalashtirilgan, shu jumladan “Oltin bel” cho'qqisidagi yangi zona ham xalqaro standartlarga mos tarzda qurilyapti.

Investitsiyalar borasida ham yirik rejalar bor. 2025-yilda O'zbekistonga 42 milliard dollar xorijiy kapital kelishi kutilmoqda. Allaqachon BAA, Malayziya, Quvayt va Fransiya kabi davlatlar bilan milliardlab dollarlik loyihalar bo'yicha kelishuvlar imzolangan. Samarqanddagi sammitda Yevropa Ittifoqi Markaziy Osiyoga 12 milliard yevro ajratishini ma'lum qilgan.

Shuningdek, davlat sohasida xususiyashtirish jarayonini davom ettiradi: 49 ta korxona sotildi, 15 ta yirik davlat kompaniyasi yevroboond chiqaradi. Bu ham investitsiyalarni yanada oshirishga yordam beradi.

Milliy turizm yagona platformasi ishga tushadi. U orqali elektron viza olish, chip-ta xarid qilish va boshqa xizmatlar bitta joyda amalga oshadi. Shuningdek, tarixiy obidalariga kirishda yagona turistik karta joriy qilinadi.

Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilishda ham sezilarli ishlar bor. So'nggi to'rt yil ichida 327 ta obyektlar ta'mirlangan, hozir yana 485 tasi ta'mirlanmoqda. Xususiy sektorni jalb qilib, bu obyektlarni biznes loyihalarga aylantirish rejalashtirilgan.

Turizm sohasida kadrlar tayyorlash ham o'zgaradi. Oliy o'quv yurtlari talabalarga amaliyot uchun xorijga chiqish imkonini beradi. Ta'lim mudдати 4 yildan 3 yilga qisqartiriladi, dual ta'lim tizimi joriy qilinadi.

Transport va infratuzilma sohasida ham yaxshilanishlar bor. Zamonaviy samolyotlar olib kelinadi, aviaqatnovlar ko'payadi. Ayniqsa, AQSh va Xitoyga to'g'ridan-to'g'ri parvozlarni yo'lga qo'yish ustida ishlamoqda.

Natijada 2025-yilda O'zbekiston 15 million sayyohni qabul qilishi va turizm sohasidan 4 milliard dollar daromad olishi rejalashtirilmoqda. Bu natijalar soha uchun katta yutuq hisoblanadi.

Turizm butun dunyo bo'ylab iqtisodiyotning eng tez o'sayotgan tarmoqlaridan biri sifatida hayotimizga chuqur singib bo'ldi. Yillar davomida sayyohlar soni millionlarga yetib, ular turli madaniyatlarni o'rganish, tabiiy go'zalliklarni kashf etish, yangi odamlar bilan tanishish imkoniyatlarini kengaytirib boryapti. Insonda sayohat ehtiyoji so'nmasligi haqiqat. Turizm faqat iqtisodiy rivojlanish omili emas, u millatlar o'rtasida do'stlik va madaniy almashinuvning ko'prigi sifatida ham o'z o'rnini yo'qotmaydi.

Texnologiyalar va transportning takomillashuvi tufayli sayohat qilish yanada osonlashib, yangi istiqbollar ochilyapti. Shu barobarda Markaziy Osiyo kabi mintaqalar o'zining boy tarixiy merosi va tabiiy manzaralari bilan dunyo sayyohlarini o'ziga jalb qilmoqda. O'zbekiston so'nggi yillarda ushbu jarayonda o'ziga xos pozitsiyani egallab, sayyohlar uchun jozibali yo'nalishga aylanib boryapti.

Kelajakda turizm sohasida innovatsiyalar, raqamlashtirish, transport imkoniyatlarining kengayishi, ekologik va madaniy barqarorlikka e'tibor qaratilishi kutilmoqda. Shu bilan birga, turizmning yangi turlari — gastronomik, ekoturizm, tibbiyot va ekstremal turizm kabi yo'nalishlar dunyo bo'ylab tobora omialashmoqda.

Umuman, sayohat shunchaki harakat emas, bu inson tafakkurining kengayishidir. Har bir ko'z ilg'agan manzara va har bir eshitilgan begona til inson qalbida yangi bir dunyoni uyg'otadi. Bugun O'zbekiston ana shu yangicha dunyolarni qarshi olyapti.

Shahobiddin LUQMON



RAQAMLI ASRDA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasiga ko'ra, har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy sirga ega bo'lish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega. Ya'ni shaxsiy daxlsizlik huquqi – shaxsning o'z hayoti erkinligi, oilaviy va shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish bilan bog'liq huquq hisoblanadi. Bu huquq shaxsning roziligisiz yoki xohishiga qarshi uning shaxsiy hayoti bilan bog'liq ma'lumotlar tarqalishining oldini olishga, bu huquqini amalga oshirishga aralashishga va cheklashning oldini olishga qaratilgan huquq hisoblanadi.

Shaxsiy daxlsizlik huquqidan mahrum qilishga sudning qarorisiz hech kim haqli emas. Insonning shaxsiy daxlsizligi deganda ko'z oldimizga bevosita shaxsiy ma'lumotlar keladi. Ya'ni har bir insonning shaxsiy ma'lumotlari (uning ism-sharifi, manzili, telefon raqami, sog'lig'ining holati, ijtimoiy ahvoli, fotosuratlari, oilaviy sirli va boshqa ma'lumotlari) qavat tomonidan huquqiy muhofaza qilinishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi insonlarning shaxsiy daxlsizligiga ham putur yetkazmoqda. Xo'sh, shaxsiy daxlsizlik huquqi o'zi nima?

Shaxsiy daxlsizlik huquqi dunyoning ko'plab davlatlarida, jumladan, O'zbekistonda ham muhim huquq sifatida tan olingan va turli qonunlar bilan himoyalangan. Jumladan, 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan “Shaxsga

doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonun shaxsga doir ma'lumotlarga oid munosabatlarni tartibga solishda va himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda shaxsiy daxlsizlikka tahdidlar kuchaymoqda. Bunday xavflardan asosiy lari sifatida quyidagilarni aytishimiz mumkin.

“INSONNING SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQIDAN MAHRUM QILISHGA SUDNING QARORISIZ HECH KIM HAQLI EMAS.”

Internet foydalanuvchilari ma'lumotlarining ekspluatatsiyasi.

Ya'ni veb saytlar, ilovalar va boshqa internet servislari foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga berishlari mumkin. Bunda asosan shaxsga doir ma'lumotlar uchinchi shaxslar (masalan, reklama kompaniyalari)ga o'z faoliyatlarini amalga oshirish uchun beriladi.

Ijtimoiy tarmoqlardagi xavf. Bunda insonlar o'zlarining shaxsiy ma'lumotlarini ijtimoiy tarmoqlarga joylash orqali o'zlarining shaxsiy daxlsizlik huquqini poymol qilinishiga sharoit yaratib bermoqdalar. Ya'ni insonlar ijtimoiy tarmoqlarda o'zlarining shaxsiy ma'lumotlari, jumladan, fotosuratlari, telefon raqamlari va boshqa ma'lumotlarini joylashtirishmoqda. Bu shaxsiy ma'lumotlarni hammaga oshkor

KORRUPSIYAGA QARSHI VIRTUAL AKADEMIYA

“Korrupsiyaga qarshi kurashish virtual akademiyasi” – O'zbekistonda korrupsiyani bartaraf etish va halollikni targ'ib qilish uchun yaratilgan onlayn ta'lim platformasi. Bu yerda siz bepul kurslar, videodarslar, interaktiv testlar orqali korrupsiyaning zararli oqibatlarini unga qarshi kurashish usullarini o'rganasiz.

Agar biz, yoshlar hozirdan halollik, shaffoflik va adolatli jamiyat qadriyatlarini o'rgansak, kelajakda korrupsiyasiz, yanada rivojlangan O'zbekistonni quramiz.

Akademiyada hammasi bepul va foydalanish uchun qulay. Qiziqarli format, maxsus dasturlar, yakunda sertifikat sizni kutadi. U yerda siz:

- Korrupsiya nima va u jamiyatga qanday zarar yetkazadi?
- Qanday qilib korrupsiyaga yo'l qo'ymaslik kerak?
- Halollik nima uchun muhim?
- Davlat xizmatchilari uchun maxsus qoidalar.
- Dunyo mamlakatlari tajribasi va boshqalarni o'rganasiz.



Huquqiy savodxonlik

qilish hisoblanadi. Natijada bu ma'lumlardan foydalanib, shaxsga qarshi, ularning ma'lumotlariga nisbatan hujumlar sodir qilinishi mumkin.

Yuzni aniqlaydigan va biometrik texnologiyalar. Hozirgi kunda sun'iy intellekt asosida yaratilgan yuzni va barmoq izlarini aniqlovchi vositalar turli sohalarda qo'llanilmoqda. Ushbu texnologiyalar davlat xizmalarida yoki boshqa sohalarda qulaylik yaratishi bilan birga insonlarning huquqlari buzilishiga ham sabab bo'lishi mumkin. Chunki bu tizim fuqarolarning roziligisiz ma'lumotlar bazasiga kirilishiga va doimiy ravishda kuzatilishiga olib kelishi mumkin. Bundan tashqari, GPS (geolokatsiyalar) tizimlari orqali foydalanuvchilarning harakatlari kuzatiladi. Bu ma'lumotlar tijorat kompaniyalari uchun marketing maqsadida, huquqni muhofaza qilish organlari uchun esa nazorat va tahlil qilishda ishlatiladi.


Kiberxavfsizlik bugun dunyo miqyosida eng dolzarb muammolardan biriga aylangan. “Hack”lar (tijoriy yoki davlat ahamiyatiga molik axborotlar noqonuniy tarzda qo'lga kiritilishi), “phishing” (foydalanuvchilarning ishonchini suiiste'mol qilgan holda uni soxta veb sahifalarga yo'naltirish va shaxsiy ma'lumotlarini, login-parol, karta raqamlarini olishga qaratilgan hujum) hujumlari va soxta identifikatsiyalar ko'paymoqda.

Vebsaytlar, mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa raqamli platformalarning keng qo'llanilishi bilan birga, foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini ekspluatatsiya qilish, ularni uchinchi shaxslarga ruxsatsiz taqdim etish va doimiy ravishda kuzatib borish holatlari tobora kuchayib boryapti. Bunday jarayonlar natijasida insonlarning shaxsiy hayoti, daxlsizlik huquqi va axborot xavfsizligi jiddiy tahdid ostida qolmoqda. Bu esa nafaqat alohida shaxslarga, balki butun jamiyatga va davlatning axborot xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi raqamli jamiyatda har bir foydalanuvchi o'zining shaxsiy ma'lumotlariga nisbatan mas'uliyatli va ehtiyotkor bo'lishi zarur. Internetdan foydalanishda xavfsizlik choralariga rioya etish, ijtimoiy tarmoqlarda ortiqcha ma'lumotlarni ulashmaslik, shuningdek, biometrik va geolokatsion texnologiyalarga nisbatan ongli yondashuv zamonaviy xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Elmira BOZOROVA,
TDYU talabasi

IMPOSTER SINDROMI



20-ASRNING O'RTALARIDA PSIXOLOGIYA SOHASIDAGI TADQIQOTLARNING RIVOJLANISHI IMPOSTER SINDROMINI ANIQLASH VA TASNIFLASHGA YORDAMLASHDI.

“ICHIMDAGI FIRIBGAR”

1985-yilda Paulin Klans o'zining “Clance Impostor Phenomenon Scale” (CIPS) – imposter sindromini o'Ichovchi psixologik testini ishlab chiqdi. Bu test orqali odamning o'z yutuqlarini qanchalik inkor qilishi, o'ziga ishonch darajasi va muvaffaqiyatni qanday qabul qilishi o'Ichanadi.

1990-yillarda imposter sindromi ustida ishlagan boshqa tadqiqotchilar – Harvey Katz (1985), Langford va Klans (1993) kabi olimlar bu sindromni ong osti darajasida shakllanadigan, ko'p hollarda ota-ona tarbiyasi, o'qituvchilarning bahosi va jamiyatdagi mukammallikka bo'lgan bosim bilan bog'lashdi.

SINDROMNING 5 TURI

Psixolog Valeriy Yang imposter sindromini uzoq yillar o'rganib, bu sindromga chalinagan odamlar qanday fikrlashi va o'ziga qanday talablar qo'yishini tahlil qilib chiqqan. U o'zining “The Secret Thoughts of Successful Women” (2011) kitobida imposter sindromining 5 asosiy turini aniqlaydi. Har bir tur odamning o'z yutuqlarini qanday inkor etishini va qaysi sohalarida o'ziga nisbatan haddan tashqari talabchanligini ko'rsatadi.

1.

MUKAMMALLIKNI TALAB QILUVCHI (The Perfectionist)

Bu turdagi insonlar o'zidan 100 foiz mukammallik kutadi. Ular ishda eng kichik xatoni ham omadsizlik deb hisoblaydi. Yaxshi natija ham ularga yetarli emas, faqat “ideal” natija qoniqtiradi. Bu odatda kechikish, ishni ortiqcha cho'zish (prokrastinatsiya), ruhiy charchoq va o'ziga past baho berishga olib keladi. Ular doimo xatolikdan qo'rqib, ishonch bilan harakat qila olmaydi.

2.

TUG'MA IQTIDORLI (The Natural Genius)

Bu odamlar o'zini aqlli, iste'dodli deb biladi, lekin bu salohiyat ularning nazarida tabiiy bo'lishi kerak. Agar biror narsani tez va oson o'rganolmasalar, bu ularning “aslida unchalik yaxshi emas”ligini anglatadi deb o'ylashadi. “Agar men bunga ko'p vaqt sarflayotgan bo'lsam, demak, bu menga to'g'ri kelmaydi”. Bunday odamlar yangi narsalarga kirishishga qo'rqadi, chunki muvaffaqiyat “mehnat bilan emas, tug'ma iste'dod bilan” kelishi kerak deb hisoblashadi. Ular har qanday qiynalishni “men bu yerga munosib emasman” degan ishonchsizlik bilan qabul qiladi.

3.

YAKKA BAJARUVCHI (The Soloist)

Bunday insonlar yordam so'rashni kuchsizlik deb biladi. Ular “Agar o'zim mustaqil bajarmasam, bu mening muvaffaqiyatim emas”, deb biladi. Tashqi yordamsiz harakat qilishni ustun ko'radi. “Agar yordam so'rasam, odamlar mening haqiqatimni bilib qoladi”. Bu turdagilar doim hammaning ishini o'z bo'yniga oladi, yordam so'ramaydi va natijada charchoqqa duch keladi. Ular jamoada ishlashda qiynalishi mumkin.

4.

MUTAXASSIS (The Expert)

Bu insonlar o'zini “qoniqarli” deb his qilish uchun doimo ko'proq bilim, ko'proq tajriba talab qiladi. Ular har narsani o'rganmasdan ishga kirishishni istamaydi. “Hammasini bilmasam, ishga loyiq emasman”, degan fikrda bo'lishadi. “Agar men hamma savolga javob bera olmasam, demak, bu yerda bo'lishga haqqim yo'q”. Ular doimiy o'rganish holatida qolib ketadi, lekin hech qachon o'zini tayyor his qilmaydi. Ish boshlashdan oldin ortiqcha tayyorgarlik ko'rib, amaliyotdan ortda qoladi.

5.

SUPERQAHRAMON (The Superperson)

Bunday odamlar o'zini isbotlash uchun har sohada a'lo bo'lishga harakat qiladi: ishda, o'qishda, do'stlar bilan, oilada... Ular doim o'z ustida ishlaydi, dam olishga vaqt ajratmaydi va o'zini ortiqcha bosim ostiga qo'yadi.

“Agar men eng zo'r bo'lmasam, demak, men qiymatsizman”. Bu yo'l oxir-oqibat ruhiy charchash, asabiylilik va o'ziga ishonchsizlikni kuchaytiradi. Ular muvaffaqiyatni faqat natija bilan emas, o'zini qiynash orqali isbotlashga harakat qiladi.

Valeriy Yangning bu tasnifi shuni ko'rsatadiki, imposter sindromi har kimda har xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Kimdir mukammallik ortidan quvadi, kimdir o'zini aqlli ko'rsatishga urinadi, yana kimdir hech kimdan yordam so'rashni xohlamaydi. Har bir tur o'ziga xos ruhiy bosimni hosil qiladi. Bu sindrom zaiflik belgisi emas, balki o'ziga yuqori talab qo'ygan va muvaffaqiyatni chuqur his qilishni istagan insonlar orasida keng tarqalgan holatdir. Tashxisni to'g'ri qo'yish va tan olish – undan chiqish yo'lini topishda birinchi qadam.



SHARQ JAMIYATLARIDA SHAXS JAMOANING BIR QISMI SIFATIDA BAHOLANADI. BU ESA O'DAMLARNI O'Z YUTUQLARINI SHAXSIY EMAS, BALKI JAMOAVIY HARAkat SIFATIDA KO'RISHGA UNDAydi.

G'ARB: INDIVIDUALIZM VA RAQOBAT MUHITIDAGI SHUBHALAR

Imposter sindromi – o'zini “haqiqiy emas” deb his qilish, yutuqlarini inkor etish – bunday tuyg'ular har kimda bo'lishi mumkin. Lekin sindrom G'arbda shunchalik keng tarqalganki, individualizm ustuvor bo'lgan jamiyatlarda odamlar o'zlarini doimiy ravishda boshqalar bilan solishtirishga majbur bo'ladi. G'arb dunyosida, xususan, AQSh va Yevropada imposter sindromining shakllanishi 20-asrning ikkinchi yarmida, ijtimoiy o'zgarishlar va gender tengligi uchun kurashlar davrida ro'y bergan. Bu davrda ayollar va boshqa marginal guruhlar (masalan, etnik ozchiliklar) oliy ta'lim va professional sohalariga tobora ko'proq kirib kela boshlagan. Biroq ular ko'pincha o'zlarini “o'z o'rnida emas” deb his qilishgan, chunki jamiyatda ularning muvaffaqiyatlari stereotiplarga zid edi.

Imposter sindromi dastlab ayollar orasida keng tarqalgan deb hisoblangan, bunga sabab gender tengligi, ya'ni ular professional sohalarida (masalan, akademiya, biznes, fan) o'zlarini isbotlash uchun ko'proq bosimga duch kelishgan, hayotdagi o'rnini topish maqsadida qancha urinishmasin, bari-bir jamiyatdagi ayrim insonlar tomonidan haqoratlangan ham. Masalan, 1970-yillarda ayollar universitetlarda professorlik lavozimlarida yoki korporativ rahbarlikda kamdan-kam uchragan, bu esa ular o'zlarini “layoqatsiz” deb his qilishiga olib kelgan.

G'arb jamiyatlari individual yutuqlarga urg'u beradi. Bu esa odamlarni doimiy ravishda o'zlarini boshqalar bilan solishtirishga va o'z muvaffaqiyatlarini shubha ostiga olishga undaydi. Imposter sindromi aynan shunday raqobatbardosh muhitda rivojlanadi, chunki odamlar o'zlarini “yetarlicha yaxshi emas” deb his qilishadi.

20-asrning o'rtalarida psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning rivojlanishi imposter sindromini aniqlash va tasniflashga yordamlashdi. Klans va Imesning tadqiqotlari bu holatni aniq nomlash va tahlil qilish imkonini berdi.

Amerikalik psixolog Kevin Koley imposter sindromining afro-amerikaliklar va boshqa etnik ozchilik guruhlari orasida qanday namoyon bo'lishini o'rgangan. Uning tadqiqotlari bu sindromning irqiy va etnik identifikatsiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Imposter sindromi AQShda turli ijtimoiy qatlamlarda tobora keng tarqalayotgan holat bo'lib, ayniqsa yuqori talab qo'yiladigan kasblar va raqobat kuchli muhitlarda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

2020–2021-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra, AQShdagi shifokorlar orasida imposter sindromiga

xos belgilar keng tarqalgan. Mutaxassislar bilim va tajribalariga qaramay, o'zlarini “haqiqiy mutaxassis emas” deb his qilishlarini bildirgan. Natijada bu ularda professional charchoq, ishdan qoniqish darajasining pasayishi va hatto ruhiy tushkunlikni keltirib chiqarmoqda. Kasbiy mukammallik talabi ularni o'z yutuqlarini e'tirof etmaslikka, xatolardan ortiqcha xavotirlanishga majbur qilmoqda.

Yosh mutaxassislar orasida ham imposter sindromi keng tarqalgan. 2025-yilda o'tkazilgan so'rovnoma ko'ra, amerikalik professional ishchilarning 71 foizi hech bo'lmaganda bir marta o'zini “bu yerga loyiq emasman” degan tuyg'u bilan yuzlashganini bildirgan. Ularning ko'pchiligi bu holatni o'ziga bo'lgan ishonchsizlik va o'zini past baholash bilan bog'lagan. Yangi muhitda, ayniqsa raqobat kuchli joylarda o'zini namoyon qilish bosimi ularni ruhiy jihatdan tahlil qilishga majbur qiladi, bu esa imposter sindromining asosiy belgilaridan biridir.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya jamiyatida bu sindrom jiddiy psixologik muammo sifatida ko'rilmogda. Ishchi kuchi, ayniqsa ayollar va ijtimoiy jihatdan marginal guruhlar orasida bu holat keng tarqalayotgani kuzatiladi.

2023-yilda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, Buyuk Britaniyadagi ishchilarning yarmi, ya'ni 50 foizi o'zlarida imposter sindromi belgilarini sezganini bildirgan. Bu raqam raqobatbardosh mehnat bozorida inson o'zini doimiy ravishda baholashga va solishtirishga majbur bo'layotganidan dalolat beradi. Qizig'i shundaki, bu his-tuyg'ular ayollar orasida (54%) yanada kengroq tarqalgan. Ular o'z yutuqlarini inkor etishga, o'zlarini “haqiqatda bu lavozimga loyiq emasman” deb his qilishga moyil bo'lgan.

Yuqori ijtimoiy barqarorlik, tenglik va sog'liqni saqlash tizimining mukammalligi bilan tanilgan Shvetsiyada ham imposter sindromi muammosi e'tibordan chetda qolmagan. Ayniqsa, tibbiyot sohasida ta'lim olayotgan talabalarda sindrom avj olayotgani 2024-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar orqali tasdiqlandi.

Gap shundaki, shved tibbiyot talabalari o'zlarini ko'pincha “bu sohada bo'lishga loyiq emasman” degan ichki shubha bilan qiynashadi.

Bu, ayniqsa, qizlarda ko'proq uchraydi. Ular nafaqat o'z bilimlariga shubha bilan qaraydi, balki akademik bosim va jamiyatdagi yuqori kutilmalar tu-fayli o'zlarining psixologik barqarorligini yo'qotish xavfiga ham duch keladi. Garchi Shvetsiya jamiyati tenglik va ruhiy salomatlikni qadrlashga intilsa-da, sindrom ularning psixologik chidamliligiga ta'sir qilmoqda, ichki motivatsiyasini zaiflashtirmoqda.

SHARQ: KOLLEKTIVIZM VA IJTIMOY BOSIMNING TA'SIRI

Sharqda imposter sindromi ko'pincha sukutda yashaydi. Uni ochiq gapirish odat tusiga kirmagan, aksincha, inson o'zini “kamtar” ko'rsatishga intiladi. Ammo bu kamtarlik ortida ko'p hollarda noaniqlik, ishonchsizlik va psixologik bosim yashirinadi. Ayniqsa, yoshlarda kuchli seziladi, ular har tomonlama “mukammal” bo'lishga harakat qiladi: yaxshi o'quvchi, yaxshi farzand, yaxshi fuqaro. Xususan, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya va Markaziy Osiyo mamlakatlarida imposter sindromining shakllanishi G'arbdan farqli ravishda ko'proq kollektiv madaniyat va ijtimoiy iyerarxiyaga bog'liq. Sharq madaniyatlarida shaxsiy yutuqlardan ko'ra jamoaviy muvaffaqiyat va ijtimoiy roldagi moslashuv muhim hisoblanadi.

Sharq jamiyatlarida shaxs jamoaning bir qismi sifatida baholanadi. Bu esa odamlarni o'z yutuqlarini shaxsiy emas, balki jamoaviy harakat sifatida ko'rishga undaydi. Natijada, ular o'zlarining shaxsiy hissalarini past baholashlari mumkin. Ba'zan jamoaviy yutuqlarda “mening hissam yo'q, shunchaki sanoqda turib berdim” degan o'y ularni qiynashi mumkin.

Xitoy va Janubiy Koreyada ta'lim va karyera sohasida ota-onalar, o'qituvchilar va jamiyat tomonidan qo'yilgan yuqori talablar imposter sindromini kuchaytiradi, ya'ni yuqori ijtimoiy bosim. Masalan, talabalar o'zlarini “yetarlicha yaxshi” deb his qilmasligi mumkin, chunki ulardan doimiy ravishda eng

yuqori natijalar kutiladi. Sharq madaniyatlarida o'z yutuqlarini oshkora e'tirof qilish ko'pincha “manmanlik” sifatida qabul qilinadi. Bu esa o'z muvaffaqiyatlarini shubha ostiga olishga olib keladi.

Sharqda imposter sindromi ko'pincha “ijtimoiy yuzni saqlash” (facesaving) bilan bog'liq. Masalan, Yaponiyada “tatemaе” (ommaviy imij) va “honne” (haqiqiy his-tuyg'ular) o'rtasidagi farq imposter sindromini yanada murakkablashtiradi. Odamlar o'zlarining ichki shubhalarini yashirishga majbur bo'ladi, bu esa psixologik stressni oshiradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar orasida imposter sindromiga o'xshash ruhiy bosimlar tobora ko'payayotgani sezilmogda. Bu holat ijtimoiy tarmoqlarda yashayotgan “sun'iy (baxtli) hayot” ko'rinishlari ortidan kelmogda. Bugun 18 yoshli bola yoki qiz birinchi avtomobilini xarid qilib, uni tarmoqda ko'rsatadi, bu yomon emasdir, lekin buni hamma ham to'g'ri qabul qilmayapti. Masalan, kimdir oilasining ko'magida yoki boshqa imkoniyatlar orqali qandaydir moliyaviy erkinlikka erishgan bo'lishi mumkin. Biroq ekran ortida turgan o'smir bu vaziyatni boshqacha qabul qiladi: “U 18 yoshida mashinada yuribdi, men esa hali hech narsaga erishmaganman”, degan ichki shubha vujudga keladi. Bu asta-sekin o'zini past baholash, noto'g'ri solishtirish va o'z hayotidan norozilikka olib keladi. Yana bir xavfli jihat shundaki, ba'zi tengdoshlar aynan shu mashhurlik va e'tibor uchun rol o'ynay boshlaydi. Ular o'zlarini “baxtli”, “boy”, “muvaffaqiyatli” ko'rsatishga harakat qiladi, aslida bu holat o'zligidan uzoqlashish, yolg'on imij ortidan quvishdir. Natijada ichki muvozanat izdan chiqadi.

Tengdoshlari xalqaro til sertifikatini yuqori ko'rsatkichga topshirsa, SAT sertifikatini qo'lga kiritsa yoki muddatdan oldin oliy ta'lim muassasasiga davlat granti bilan qabul qilinsa, yoshlarda bu sindrom yanada kuchayadi va “Mening ham qo'lmand kelarmikan”, “Kirol-masam, hamma ustimdan kuladi-kul!” degan o'y-xayollar ularning ich-etini kemira boshlaydi. Mahalliy madaniyatda “uyay” tushunchasi va ota-onalarning yuqori talabi (gohida orzu-havasi) farzandlar doimiy ravishda yetarlicha yaxshi emas deb his qilishga olib keladi.

Guljahan XO'JAYEVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

“YOSHLAR OVOZI” SAHNA ORZUSI RO'YOBGA CHIQDI!

Davomi. Boshlanishi 1-sahifada.



Tanlovning ikkinchi kuni opera yo'nalishida o'tkazildi. Sahnada poytaxtdan tortib, eng olis hududlar-gacha bo'lgan yosh iste'dodlar o'z mahoratini namoyon etdi. G'oliblik shohsupasidan Sadoqat Abduraimova (Surxondaryo, 10-15 yosh), Jasmina Asrayeva (Samarqand, 16-22 yosh), Aqilbek Piyazov (Qoraqalpog'iston, 23-30 yosh) joy oldilar.

Tanlovning uchinchi kuni estrada yo'nalishida o'tib, barcha kuy-qo'shiqlar jonli ijroda yangradi. Qoraqalpog'istonlik Asemay Ura-kova 10-15 yosh toifasida, xorazmlik Qodirbergan Aminbayev 16-22 yosh toifasida 1-o'rinni band etdi.

Tanlovning so'nggi kuni an'anaviy ijrochilar o'zaro mahoratlarini sinovdan o'tkazdi. Klassik yo'nalishdagi bahslarning 10-15 yosh toifasida poytaxtlik Zilola Soatova tengsizligini isbotladi. 16-22 yosh toifasida Ma'ruf Xudoyorov (Jizzax), 23-30 yosh toifasida esa Inoyat Bazarov (Qoraqalpog'iston) barcha raqiblaridan ustun keldi.

Tanlovda har bir yo'nalish bo'yicha yuqori o'rinlarni egallagan uch nafar ishtirokchi mos ravishda 50, 30 va 20 million so'm miqdoridagi pul mukofotlariga sazovor bo'ldi. Qolgan barcha ishtirokchilar 10 million so'm miqdoridagi rag'batlantiruvchi mukofotlar bilan taqdirlandi. Tanlovda ishtirokchilar nafaqat o'z san'atini namoyon etdi, balki xalqimizning mashhur san'at ustalari: O'zbekiston xalq artisti Aziz Rajabiy hamda taniqli xonanda Ali Niyozimbetov bilan bo'lib o'tgan ijodiy uchrashuvlarda qatnashish baxtiga muvaffaq bo'lishdi. Ustoz san'atkorlar o'zining sahna tajribalari, ijodiy izlanishlari hamda qimmatli maslahatlari bilan o'rtoqlashdi.

“Yoshlar ovozi” tanlovi san'atga ixlosmand yoshlar uchun nafaqat iste'dodini namoyon etish maydoni, balki ularning professional sahnaga ilk qadamlarini tashlash, ustozlardan safoq olish va kelajak sari ishonch bilan intilish imkonini bergan muhim platformaga aylandi.

YOSHLAR OVOZI

BIZ – KELAJAK BUNYODKORIMIZ!

Muassis:
O'zbekiston yoshlar ittifoqi
Markaziy Kengashi

Bosh hamkor:
O'zbekiston Respublikasi
Yoshlar ishlari agentligi

Bosh muharrir:
Hamza ABDULLAYEV

Mas'ul muharrir:
Muhammadshukur MUHAMMADJONOV
Navbatchi muharrir:
Shahobiddin LUQMON

Fotograf:
Xolida MUSULMON

Gazeta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-dekabrda № 0242 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan. Gazeta materiallari tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi. Tahririyat manzili: 100000, Toshkent, Mustaqillik shoh ko'chasi, 2. Telefon: (71) 233-22-16.

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi

/yoshlarovozi.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida, A-2 formatida chop etildi. Hajmi – 2 bosma tabaq. Korxona manzili: Buyuk Turan ko'chasi, 41. Indeks: 203, 3203. Bahosi kelishilgan narxda. Buyurtma G-608, Adadi – 10395. Bosishga topshirish vaqti – 21.00. Topshirildi – 20.00

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

